

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS
METAKOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV
YONDASHUVNING ROLI

Ibrohimova Shahlo Umarali qizi

Samarqand viloyati Samarqand shahar

28-umumiy o'rta ta'lim maktabi

matematika fani o'qituvchisi

E-mail: shahloibrohimova720@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda metakognitiv faoliyatni rivojlantirish jarayonida refleksiv yondashuvning o'rni, ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish, baholash va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda refleksiyaning roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, refleksiya, refleksiv yondashuv, o'z-o'zini nazorat qilish, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar.

Kirish. Bugungi zamonaviy pedagogikada ta'lim oluvchilarning nafaqat bilimlarni egallashi, balki o'z bilim olish jarayonini anglab yetishi, uni tahlil qilishi va boshqarishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Bunday yondashuv metakognitiv faoliyatni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u shaxsning o'z tafakkur jarayonlarini kuzatish va tartibga solish qobiliyatini ifodalaydi [2]. Metakognitsiya tushunchasi o'quvchining "qanday o'rganayapman?", "qaysi usul samarali?", "qanday xatoga yo'l qo'ydim?" kabi savollarga javob topa olish qobiliyatini o'z ichiga oladi [3].

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak metakognitiv faoliyatni shakllantirishda refleksiv yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv orqali ta'lim oluvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda keyingi faoliyatini rejalashtiradi [4]. Shu jihatdan qaraganda, refleksiv yondashuv nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ularni ongli ravishda boshqarishga ham yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar keng joriy etilayotgan bir paytda, refleksiv yondashuvni metakognitiv faoliyat bilan integratsiyalash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda [5]. Chunki bu yondashuv o'quvchilarning faqat bilim olish emas, balki o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan faol subyektga aylanishiga xizmat qiladigan yondashuvdir.

Shuning uchun metakognitiv faoliyat va refleksiv yondashuv o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu tadqiqot jarayonini tashkil etishda ilmiy-nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlari qo'llanilishi esa tadqiqotning samarali kechishini ta'minlaydi [6]. Buni amalga oshirish uchun esa nazariy jihatdan metakognitsiya va refleksiya masalalariga oid ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganilib, ularning pedagogik jarayondagi o'rni tahlil qilinishi lozim.

Amaliy jihatdan esa refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari modellashtirildi va ularda qo'llaniladigan metodlar tahlil etildi. Xususan, o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatini yozma va og'zaki tahlil qilish, refleksiv kundalik yuritish, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish kabi usullar samaradorligi o'rganilishi kerak[7]. Shuningdek, o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini aniqlash va baholash mezonlari ishlab chiqilishi va aynan shu mezonlar asosida tahlil ishlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Natijalar. Refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning metakognitiv faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatadi [8]. Xususan, refleksiv topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z bilim darajasini baholash, o'rganish strategiyalarini tanlash va ularni tahlil qilish ko'nikmalarini egallay boshladilar. Bu esa ularning o'quv jarayoniga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantirdi, dars jarayonidagi nazariy va amaliy bilimlarni egallashlarida ularni bilimlarni o'zlashtirish strategiyalarini mustaqil shakllantirishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash elementlari muntazam qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati ortadi. Refleksiya jarayonida o'quvchilar o'z xatolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash va kelgusi faoliyatni rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [9]. Natijada ularning nafaqat bilim darajasi, balki tafakkur madaniyati ham rivojlandi.

Bundan tashqari, refleksiv yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashish va samarali qaror qabul qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Refleksiv yondashuvning metakognitiv faoliyatni rivojlantirishdagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlagan holda aytishimiz mumkin refleksiya o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatini anglashiga, uni nazorat qilishiga va takomillashtirishiga imkon beradi [10]. Shu bilan birga, refleksiv yondashuvni samarali joriy etish uchun o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvlarga ochiqligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek refleksiv faoliyatni tashkil etishda uning muntazamligi va tizimliliigi muhim omil hisoblanadi. Agar refleksiya faqat epizodik tarzda qo'llansa, u kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli refleksiv topshiriqlar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bundan tashqari, refleksiv yondashuvni qo'llashda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Har bir o'quvchi refleksiya jarayonida turlicha faoliyat yuritadi, shuning uchun differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, refleksiv yondashuvni individuallashtirish metakognitiv rivojlanish samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, refleksiv yondashuv metakognitiv faoliyatni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, nazorat qilish, baholash va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Refleksiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularni faol, ongli ta'lim subyektiga aylantiradi. Kelgusida ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni keng joriy etish, uning metodik asoslarini

takomillashtirish hamda metakognitiv kompetensiyalarni baholash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring. – American Psychologist, 1979.
2. Brown A.L. Metacognitive Development. – Harvard University Press, 1987.
3. Schraw G., Dennison R.S. Assessing Metacognitive Awareness. – Contemporary Educational Psychology, 1994.
4. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath and Company, 1933.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
6. Creswell J.W. Research Design. – Sage Publications, 2014.
7. Kolb D.A. Experiential Learning. – Prentice Hall, 1984.
8. Pintrich P.R. The Role of Metacognitive Knowledge in Learning. – Educational Psychologist, 2002.
9. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement. – Springer, 2000.
10. Moon J.A. Reflection in Learning and Professional Development. – Routledge, 1999.

